

UO'K: 615:619:617

OTLARDA OYOQ PAYLARI SURUNKALI ASEPTIK YALLIG'LANISHINI DAVOLASH

Tashtemirov R.M. – professor

Haydarova S.A. – ilmiy rahbar v.f.f.d.

Pardayev E – magistr

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada otlarda oyoq paylari surunkali aseptik yallig'lanishini davolashda ishlab chiqilgan maxsus davolash sxemasini qo'llash tajribalari hamda davolash davrida klinik ko'rsatkichlar holati, qonining morfologik va biokimyoviy o'zgarishlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлен опыт применения разработанной специальной схемы лечения хронического асептического воспаления сухожилий у лошадей, а также результаты изучения состояния клинических показателей, морфологических и биохимических изменений крови в период лечения.

Summary. The article presents the experience of application of the developed special scheme of treatment of chronic aseptic inflammation of tendons in horses, as well as the results of studying the state of clinical parameters, morphological and biochemical changes in blood during the treatment period.

Kalit so'zlar: pay va pay qini yallig'lanishlari, aseptik yallig'lanish, distrofik surunkali tendinit va tendovaginit, ambenium parenteral.

Mavzuning dolzarbligi. Otlarda barmoqlarning pay va pay qinlari yallig'lanishlari (tendinit va tendovaginit) tez-tez uchrab turadi. Bu kasalliklar hayvonlar hayotiga va xizmat faoliyatiga sezilarli zarar yetkazadi. Bundan tashqari kasal otlarni davolash va saqlashga ketadigan iqtisodiy xarajatlar ko'payadi. Otlarda uchraydigan pay kasalliklarini davolash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[1].

Ko'plab tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, pay kasalliklari shikastlanishning natijasidir. Sport otlarida pay-paycha apparatlarining shikastlanishi mushak-skelet tizimining eng keng tarqalgan muammosidir. A.A. Stekolnikov ma'lumotlariga ko'ra, sport otlarida shikastlanishlar umumiy kasalliklarning 86 foiziga, 37 foizi esa mushaklar, paylar va bo'g'imlarning patologiyasiga to'g'ri keladi. Ko'p hollarda jarohatlarning oqibatlarini paylarning distrofik surunkali tendinit va tendovaginit kasalliklariga olib keladi [8].

Zamonaviy veterinariya tibbiyotining ehtiyojlari, bir tomondan, yallig'lanish jarayoniga ta'sir qilishi va tananing himoyasini optimallashtirishi mumkin bo'lgan to'qimalarning yangilanishiga ta'sir qilishning yangi usullarini takomillashtirish va izlash zarurligini belgilaydi. Ushbu talablar pay to'qimasini tiklash jarayonlarini kuchaytirish va normallashtirishga, ushbu turdagi patologiyani davolash natijalarini

yaxshilashga qodir bo'lgan trombositlar autoplazmasidan foydalanish imkoniyatini oshiradi [4].

Tadqiqotning maqsadi. Otlar orasida pay kasalliklarini kelib chiqish sabablarini hamda Samarqand viloyati va shahri aholisiga tegishli otlarda surunkali aseptik pay yallig'lanishini samarali davolash usulini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

Materiallar va usullar. Tekshirishlar Samarqand viloyati va shahri aholisiga tegishli otlarda olib borildi.

Tajriba uchun orqa oyoq paylarida surunkali aseptik yallig'lanish jarayoni kechayotgan 6 bosh ot ajratib olinib, ular o'xshash juftliklar tamoyili asosida 3 boshdan ikki guruhga ajratildi.

Birinchi tajriba guruhidagi otlarga an'anaviy davolash usullari spirtli isituvchi kompresslar, ambenium parenteral- mushak orasiga, antibiotiklar bilan birgalikda aylanma novokain – deksametazon qamali qo'llanilib, pay qini punksiyasi bajarildi.

Ikkinchi nazorat guruhidan 3 ta otni davolash uchun an'anaviy davolash usullari qo'llanildi (1 – jadval).

1– jadval

Surunkali tendinitni davolash tartibi.

T/r	Guruhlar	Bosh soni	Davolash usullari
1	Tajriba guruhi	3	spirtli isituvchi kompress aylanma deksametazon –novokain qamali ambenium parenteral- m/o pay qini punksiyasi antibiotikoterapiya
2	Nazorat guruhi	3	spirtli isituvchi kompress aylanma novokain qamali pay qini punksiyasi antibiotikoterapiya

Tekshirish jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

Anamnez ma'lumotlarini yig'ish (bu ma'lumotlar hayvonning egasidan yig'ildi). Bunda jarayon qachon paydo bo'lganligi, uning soni, hayvon organizmiga salbiy ta'siri, yordam qachon va kim tomonidan ko'rsatilganligi aniqlandi.

Ko'rikdan o'tkazish usulida, hayvonning umumiy holati, jarayonning joylashgan joyi, shakli, katta-kichikligi, soni, undan chiqib turgan suyuqlikning miqdori, xarakteri, bo'g'im va paylarning holati aniqlandi.

Paypaslash usuli yordamida yallig'lanish atrofidagi to'qimalardagi mahalliy harorat, og'riq, jarayon qatlamlarida hosil bo'lgan to'qimalarning holati, flyuktuatsiya va krepatatsiya tovushlari, limfa tugunlarining holati tekshirildi.

Bundan tashqari hayvonlardan qon olinib, ularning qonidagi morfologik ko'rsatkichlari tekshirildi.

Tadqiqot natijalari. Kasallikka tashxis qo'yishda anamnez ma'lumotlari va klinik tekshirish natijalar asosida qo'yildi.

Tendinit bilan kasallangan tajribadagi otlarni davolash mobaynida quyidagi klinik belgilar namoyon bo'ldi, bunda hayvonlar kasal oyoqlarini avaylab, tana og'irligini bir oyoqdan ikkinchisiga o'tkazib turadi. Palpatsiyada ularda suyuqlik

miqdorining maksimal oshishi 5–6 kunga borib kuzatildi. Pay qini ichidagi serozli suyuqlik miqdori 8 kun mobaynida bir me'yorda bo'lib, keyin sekinlik bilan pasaya boshladi. Hayvon yurganda oqsash kuchayadi. 7 kunga borib yallig'lanish reaksiyasi pasaydi, pay qinining taranglashishi va pay qini ichidagi suyuqlik miqdori kamaydi. Shu davrga kelib oqsash belgilari pasayishi bilan hayvonga o'lchamli davolovchi yurgizish belgilandi, passiv harakatlarda og'riq ancha kamaygan. Davolashning 15 kuniga borib pay qinining klinik kuzatishlari to'qimalarning morfologik tuzilishi deyarli to'liq tiklanganligini ko'rsatdi.

Nazorat guruhidagi hayvonlarida tana haroratining oshishi, puls va nafas olish tezligining o'zgarganligi kuzatildi.

Yuqorida aytib o'tilgan klinik belgilarning ko'tarilishi 3–kunga borib namoyon bo'ldi va hayvonlarning to'liq davolanishi 20 kunga cho'zildi.

Davolashni boshlagandan keyin 8 chi kunga borib qonni morfologik ko'rsatkichlarga tekshirdik. Olingan natijalar 2–jadvalda keltiriladi.

2–jadval

Otlarda surunkali tendinitni davolashda qonning ko'rsatkichlari.

T/r	Guruhlar	Biometrik ko'rsatkichlar	Norma, %	4 kun	8 kun	12 kun	16 kun	22 kun
Tajriba guruhi								
1	Eritrotsitlar mln. mkl	M ±m	4,4±0,6 100	4,7 108	4,9 110	5,5 112	5,0 110	4,8 108
2	Leykotsitlar ming, mkl	M ±m	8,7±0,5 100	9,4 111	9,5 112	9,4 111,5	9,4 111	9,4 111
3	Gemoglobin g/l	M ±m	85±1,4 100	97 114	97 114	100,4 118,2	99,4 117	98,6 116
Nazorat guruhi								
1	Eritrotsitlar mln. mkl	M ±m	4,3±0,3 100	4,1 96	4,1 96	4,4 101,4	4,2 99	4,2 99
2	Leykotsitlar ming, mkl	M ±m	8,1±0,5 100	8,7 111	8,2 103	8,2 103	8,4 106	8,4 106
3	Gemoglobin g/l	M ±m	87±1,2 100	87,9 101	87 100	87,9 101	85,2 98	88,5 102

Davolash maqsadida deksametazon – novokain qamali bajarilgan otlarning qonida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: hayvonlar qonida eritrotsitlar miqdori oshib borib, davolashning 12 kunida 12 % ga ko'paydi. Keyinchalik eritrotsitlar soni asta-sekin pasayib, tajriba oxirida esa 8 % ga ko'payganligi qayd etildi.

Leykotsitlar soni 8-kunga borib 12 % oshdi. Keyinchalik esa bu ko'rsatkich asta-sekin pasaya boshladi, ammo davolashning 22 – kunida ham normadan 11% oshib turdi. Gemoglobin moddasining miqdoriy o'zgarishlari ham yuqoridagi ko'rsatkichlarga o'xshab 12 kunga 18,2 % ga oshdi va 22 – kunda 16,0 % ni tashkil qildi.

Ikkinchi nazorat guruhidagi hayvonlar qonining ko'rsatkichlari biroz boshqacha ko'rinishda kechdi. Qondagi eritrotsitlar soni 12 kunda borib faqat 1,4 % oshdi va tajriba oxirida oldingi holatga keldi.

Leykotsitlar soni tajriba guruhiga nisbatan pasayib bordi. Ikkinchi guruhdagi hayvonlarda bu jarayon uncha yaqqol bo'lmasada uning kechishi ancha cho'zildi.

Xulosalar:

1. Surunkali aseptik tendinitni davolash muddati birinchi tajriba guruhida 15 kunni, ikkinchi nazorat guruhida 20 kunni tashkil qildi.
2. Birinchi guruhdagi hayvonlar qonidagi eritrotsit, leykotsit va gemoglobinning miqdori ko'paygandan keyin pasayishga moyilligi bo'lmaydi. Bu hol hayvonlarda retikulo–endotelial sistemasining stimulyatsiyasidan darak beradi.
3. Ikkinchi guruh hayvonlarida esa qon ko'rsatkichlari uncha o'zgarmasdan, kasallik oxirida oq elementlari biroz ko'payadi, ya'ni limfotsitopeniya rivojlanadi.

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. Haydarova, S. A., Narziev, B. D., & Tashtemirov, R. M. (2022). Dynamics of X-Ray Status After Osteosynthesis in Dog Fractures of Injury Bones. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(8), 126-130.
2. Таштемиров, Р. М., & Хайдарова, С. А. (2019). Возрастные изменения массы мышц тазовой конечности в онтогенезе у каракульских овец предгорной зоны узбекистана. In *современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 131-135).
3. Таштемиров, Р. М. (1983). *Возрастные изменен скелету и мышцы тазовой конечности каракульских овец предгорной зоны Узбекистана* (Doctoral dissertation, автореф. дис.... к. вет. н./РМ Таштемирова/Самарканд).
4. Таштемиров, Р. М. (2022). Teri kasalliklarini davolashda qo'llanadigan o'simlik dori vositalarining tavsifi (Adabiyot malumotlari asosida). *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 2(1).
5. Khamzaev, K. A., & Tashtemirov, R. M. (2021). Treatment of chronic aseptic inflammation of flexor toe tendons in horses. *Academicia Globe*, 2(6), 373-375.
6. Tashtemirov, R. M. (2022). ZOTLI QORAMOLLARDA PODODERMATITLARNI KELITIRIB CHIQRUVCHI OB'JEKTIV OMILLAR. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 445-448.
7. Урмонов, А. Х., & Таштемиров, Р. М. (2023). СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 3(1).
8. Tashtemirov, R. M. (2022). Qoraqalpog'iston respublikasi ayrim qoramolchilik xo'jaliklarida tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 205-207.
9. Таштемиров, Р., Даулетбаев, Н., & Мирзайев, С. (2022). РАСПРОСТРАНЕНИЕ БОЛЕЗНЕЙ КОПЫТЕЦ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫХ ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 2(13), 45-49.
10. Таштемиров, Р. М., & Бакридининов, Г. (2021). Итлардаги тери касалликларини доривор ўсимлик препаратлари билан даволаш ва олдини олиш тамойиллари. *Естественные науки: теория и практика*, 1(1), 14-18.

11. Dauletbaev, N. P., & Tashtemirov, R. M. (2023). HÁR TÚRLI TÁBIYIY SHARAYATTAĠI TÚYETAWIQLAR POSTNATAL ONTOGENEZINDE AYAQ SUYEKLERINIŇ MORFOMETRIK QÁSIYETLERI. *UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, 1(6), 48-52.

12. Tashtemirov, R. M. (2022). Age changes in the linear sizes of the bones of the pelvic limb sheep of the karakul breed. *Journal «Annals of forest research*, 65(1), 2782-2791.

13. Таштемиров, Р. М. (2019). Некоторые аспекты возрастных изменений массы и линейных размеров костей свободной тазовой конечности каракульских овец предгорной зоны Узбекистана.

14. Tashtemirov, R., & Dauletbaev, N. (2023). HAR XIL TABIIY SHAROITDAGI KURKALAR POSTNATAL ONTOGENEZIDA OYOQ SUYAKLARINING MORFOMETRIK XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(30), 42-45.

15. Jabborov, A. G., & Tashtemirov, R. M. (2023). TERI KASALLIKLARINING ETIOLOGIYASI VA PATOGENEZI TO 'G 'RISIDAUMUMIY MA'LUMOTLAR. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 19-23.

16. Tashtemirov, R. M., & Esanboyeva, G. F. (2023). QORAMOLLARDA YIRINGLI PODADERMATITNI KASALLIGINI DAVOLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 73-77.

17. Tashtemirov, R. M., & Esanboyeva, G. F. (2023). UDK: 619: 636.2: 617.3: 616 QORAMOLLARDA YIRINGLI PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 673-676.

18. Tashtemirov, R. M., & Esanboyeva, G. (2023). UDK: 619: 636.2: 617.3: 616 QORAMOLLARDA YIRINGLI PODADERMATITNING ETIOPATOGENEZI VA UNI DAVOLASH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 548-550.

19. Таштемиров, Р. М. (2023). SPORT OTLARIDA OG 'IZ BO 'SHLIG 'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 3(1).

20. Matlyubovich, T. R., & Jahongir To'liqinjon o'g, C. (2023). SPORT OTLARIDA OG 'IZ BO 'SHLIG 'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI. *Journal of new century innovations*, 26(2), 61-64.

21. Tashtemirov, R. M., & Dauletbaev, N. P. U. (2022, October). Qaraqalpaqstan respublikasinda ayrim qaramalshiliq xojaliqlarindaġi tuyaq kesellikleriniŇ ushrasiw dárejesi. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 13, pp. 100-103).

22. Пардаева, Ш. А., & Таштемиров, Р. М. (2021). Современные методы лечения кератоконъюнктивитов у лошадей.

23. Tashtemirov, R. M., & Dauletbaev, N. P. (2024). FEEDING IN POSTNATAL ONTOGENESIS OF TURKEYS. *Ustozlar uchun*, 1(1), 32-34.

24. Tashtemirov, R. M., Dauletbaev, N. P., & O'ktamov, A. (2024). TÚYETAWIQLARDIŃ POSTNATAL ONTOGENEZINDEGI AZIQ RACIONÍ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 3(4), 172-174.

25. Rustam o'g'li, Y. A. (2023). OTLARDA SAKRASH BO 'G 'IMINING ASEPTIK YALIG 'LANISHINI DAVOLASH. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 3(1).

26. Таштемиров, Р., & Хайдарова, С. (2023). ИЗМЕНЕНИЯ МИКРОАНАТОМИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ МЫШЦ ТАЗОВОЙ КОНЕЧНОСТИ В ВОЗРАСТНОМ АСПЕКТЕ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (4), 57-62.

27. Rustam o'g'li, Y. A. (2023). OTLARDA SAKRASH BO 'G 'IMINING ASEPTIK YALIG 'LANISHINI DAVOLASH. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 3(1).

28. Таштемиров, Р., Даулетбаев, Н., & Мирзайев, С. (2022). РАСПРОСТРАНЕНИЕ БОЛЕЗНЕЙ КОПЫТЕЦ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫХ ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 2(13), 45-49.

29. Таштемиров, Р., & Бакридинов, Г. (2021). Принципы лечения и профилактики кожных заболеваний у собак фитопрепаратами. *Естественные науки: теория и практика.*, 1(1), 14-18.

30. Alkhas'iants, E., Zakirov, T. S., & Tashtemirov, R. (1975). Khimicheskie mery bor'by s sorniakami v posevakh khiopchatnika v Karshinskoj stepi.